


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60711400 – Transport vositalari muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711400 – Transport vositalari muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: YO'LDOSHOV RUSTAM MADAMIN O'G'LI

Toshkent davlat transport universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: MOHIT BHANDWAL

Toshkent shahridagi Amiti universiteti

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260043
Xulosa raqami	1261
Xulosa sanasi	09.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy. Litsenziya: № 2684377, 06.01.2025. Guvohnoma: MAS № 0000356, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Transport vositalari muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2684377, 06.01.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711400 – Transport vositalari muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711400 – Vehicle Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711400 – Инженерия транспортных средств
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kechki / ikkinchi oliy (kunduzgi)
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4,5 yil / 4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-mexanik (avtomobil transporti bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	240 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 39A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Baholash davomida taqdim etilgan hujjatlar hamda institutga tashrif jarayonida joyida o'rganilgan dalillar asosida ta'lim dasturini boshqarish va rivojlantirish tizimi kompleks tahlil qilindi. Natijalar dasturni boshqarish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy mexanizmlar yetarli darajada shakllantirilgani, mas'ul tarkibiy tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani, istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgani hamda ichki sifat monitoringi tizimi izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvlari amaldagi me'yoriy talablar asosida tashkil etilgani baholandi. Boshqaruv qarorlarining ichki monitoring natijalari va tahliliy ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilinishi ta'lim dasturining barqaror rivojlanishini ta'minlash, sifat ko'rsatkichlarini muntazam oshirib borish hamda aniqlangan ehtiyojlarga tezkor munosabat bildirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida ta'lim dasturining mazmuni har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari ta'lim dasturini loyihalash, ishlab chiqish, tasdiqlash va muntazam takomillashtirish jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida tashkil etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, dastur yakunida bitiruvchilarga "Muhandis-mexanik (avtomobil transporti bo'yicha)" kvalifikatsiyasi berilishi amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ekanligi, ta'lim mazmuni zamonaviy muhandislik faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgani baholandi. Nazariy

muhandislik fanlari bilan avtomobil transportiga xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya amaliyotining o'zaro uyg'unligi talabalarning nazariy bilimlarini real ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalash, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash hamda soha ehtiyojlariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining mazmuni belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq javob berishi aniqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda joyida o'rganilgan amaliyot natijalari kompleks tahlil qilindi. Baholash davomida o'quv jarayonini amalga oshirish mexanizmlari amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida samarali yo'lga qo'yilgani, bilimlarni baholash mezonlari shaffof va aniq belgilanganligi hamda akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan tizim izchil joriy etilgani kuzatildi. Shuningdek, nazorat turlarini tashkil etish, ta'lim natijalarini xolis baholash va o'quv jarayoni sifatini monitoring qilish belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilayotgani ijobiy baholandi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulot topshiriqlarining baholash tizimi tarkibiga kiritilishi talabalarning muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga mosligi bilan tavsiflandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni akademik qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda joyida o'rganilgan amaliyot natijalari asosida kompleks baholash amalga oshirildi. Tahlillar talabalarni qabul qilish, ularga zarur axborotlarni yetkazish, akademik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda talabalar harakatini boshqarish tizimi samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi. Shuningdek, kechki va ikkinchi oliy ta'lim shakllari uchun o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish va akademik jarayonlarni boshqarishga oid tartiblar amaldagi me'yoriy talablar asosida belgilanganligi baholandi. Ishlab chiqarishda band bo'lgan talabalar uchun dars jadvalining moslashuvchan tashkil etilishi ularning ta'lim jarayonida muntazam ishtirok etishini ta'minlash, o'qish va mehnat faoliyatini samarali uyg'unlashtirish hamda belgilangan o'quv natijalariga erishishni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi qayd etildi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy-pedagogik salohiyati va ta'lim dasturini kadrlar bilan ta'minlash holati har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani, ularning ilmiy-pedagogik salohiyati belgilangan talablarga javob berishi, mutaxassisliklari o'qitilayotgan fanlar yo'nalishiga mosligi hamda malaka oshirish tizimi izchil faoliyat yuritayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash va o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tizimli ravishda amalga oshirilayotgani baholandi. Transport korxonalarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi muhandislarning o'quv jarayoniga jalb etilishi talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish, nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish tajribasi bilan uyg'unlashtirish hamda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga to'liq mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha joyida o'rganish natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar asosida mavjud infratuzilma kompleks baholandi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, axborot resurslari va raqamli infratuzilma yetarli darajada shakllantirilganini, laboratoriyalar, ustaxonalar hamda avtomobil diagnostikasiga mo'ljallangan jihozlar ta'lim dasturi ehtiyojlariga muvofiq tashkil etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida olib borish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani baholandi. Avtomobil diagnostikasi va servis uskunalarining muntazam yangilanib borilishi talabalarning zamonaviy texnik vositalar bilan ishlash malakasini shakllantirish, ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish hamda belgilangan o'quv natijalariga to'liq erishishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik ta'minot tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda shakllantirilganligi xulosa qilindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Ilmiy-tadqiqot natijalarini xalqaro nashrlarda e'lon qilishni faollashtirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy nashrlardagi ishtirokini rag'batlantirish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Andijon davlat texnika institutida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganish natijalari ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni shaffof baholash mexanizmlari va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish hamda akademik qo'llab-quvvatlash tizimi izchil yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibi belgilangan talablarga javob berishi, shuningdek zamonaviy laboratoriyalar, ustaxonalar, o'quv adabiyotlari, axborot-resurs bazasi va raqamli infratuzilmaning ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada ta'minlangani bilan tavsiflandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta yo'nalish bo'yicha baholangan barcha 27 ta mezon muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda uni

yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi qayd etildi. Umuman olganda, bakalavriat ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan barcha talablarga muvofiqligi asoslandi va u muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

